




Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

Viloyatda o'rtacha oylik ish haqi yanvar-iyun oylarida 2446,2 ming so'mni tashkil etib, viloyat hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Shirin shahrida 3353,7 ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 137,1 %), Guliston shahrida 2843,7 ming so'mni (116,2 %), Xovos tumanida 2459,0 ming so'mni (100,5 %) tashkil etgan.

Boshqa hududlarga nisbatan Mirzaobod tumanida **1955,7** ming so'mni (**79,9 %**), Guliston tumanida **1860,9** ming so'mni (**76,1 %**), Oqoltin tumanida **2021,2** ming so'mni (**82,6 %**), Sardoba tumanida **2044,2** ming so'mni (**83,6 %**), tashkil etib, viloyatdagi o'rtacha ish haqiga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda

Hududlar bo'yicha viloyat o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan (% da)



(viloyatdagi oʻrtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da)

Sirdaryo viloyati boʻyicha oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi, ming soʻm) (qishloq xoʻjaligi va kichik tadbirkorlik subʻyektlaridan tashqari, ming soʻm)

	2020-yil Yanvar-iyun	2021-yil Yanvar-iyun	O'sish sur'ati, % da
Viloyat boʻyicha jami:	2 175,7	2 446,2	112,4
<i>shaharlar:</i>			
Guliston	2 467,4	2 843,7	115,2
Shirin	2 825,5	3 353,7	118,7
Yangiyer	2 349,9	2 517,9	107,2
<i>tumanlar:</i>			
Oqoltin	2 008,7	2 021,2	100,6
Boyovut	2 194,6	2 211,3	100,8
Guliston	1 888,2	1 860,9	98,6
Sayxunobod	2 253,1	2 419,9	107,4
Mirzaobod	1 499,6	1 955,7	130,4
Sardoba	1 914,4	2 044,2	106,8
Sirdaryo	1 892,3	2 200,1	116,3
Xovos	2 164,5	2 459,0	113,6

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi tahlili.

(2021- yilning yanvar – iyun oylarida)

Sanoatda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2394,1 ming so'mga to'g'ri keldi va 2020 - yilning mos davri bilan taqqoslaganda 10,1 % ga oshdi.



➤ **Qurilish sohasida** o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2099,1 ming so'mga to'g'ri keldi va 2020 - yilning mos davri bilan taqqoslaganda 50,2 % ga tushdi.

➤ **Savdo sohasida** o'rtacha nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2252,7 ming so'mni tashkil qildi va 2020 - yilning mos davri bilan taqqoslaganda 25,9 % ga tushdi.



➤ **Tashish va saqlashda** o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 1603,7 ming so'mni tashkil qildi va 2020 - yilning mos davri bilan taqqoslaganda 3,3 % ga tushdi.

- **Axborot va aloqa** sohasida oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2874,3 ming soʻm ga toʻgʻri keldi va 2020 - yilning shu davri bilan taqqoslaganda 17,0 % ga oshdi.



- **Moliya va sug'urta** faoliyati sohasida oʻrtacha nominal hisoblangan ish haqi miqdori 4 894,4 ming soʻmni tashkil qildi va 2020 - yilning mos davri bilan taqqoslaganda 24,0 % ga oshdi.

- **Ta'lim sohasida** oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2 276,5 ming soʻmni tashkil qildi va 2020 - yilning mos davri bilan taqqoslaganda 13,5 % ga oshdi.




- Sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar** sohasidagi oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2 107,7 ming soʻmga toʻgʻri keldi va 2020 - yilning tegishli davri bilan taqqoslaganda 9,5 % ga oshdi.

➤ **Boshqa faoliyat turlari** sohasidagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2661,0 ming so‘mga to‘g‘ri keldi va 2020 - yilning tegishli davri bilan taqqoslaganda 14,8 % ga oshdi.



➤ **2021 yil yanvar-iyun oylarida Sirdaryo viloyatida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2446,2 ming so‘mni (ish haqiga ustama, mukofot, rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to‘lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig‘i, ijtimoiy sug‘urta va kasaba uyushmasiga to‘lovlar ham mavjud) tashkil etgan.**

➤ **O‘tgan yilga nisbatan o‘shish sur‘ati 112,4 % ga o‘sgan.**



O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqqining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi

(2021-yil yanvar-iyun oylarida, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz, ming so‘mda)



Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to'liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida Mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi (2021 yil 1-fevraldan 747300,0 so'mni tashkil etgan) bo'yicha belgilangan miqdordan oz bo'lishi mumkin emasligi ko'rsatib o'tilgan.



Viloyat statistika boshqarmasi
Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi
Nashr uchun mas'ul: N.Yuldoshev
(67) 236-86-32